

## QADIMIY DUNHUAN SHAHRI – G’ARB VA SHARQ ORASIDA

*Toshkent Davlat sharqshunoslik universiteti  
Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi  
Fakulteti Tarix (mintaqa va mamlakatlar bo ‘yicha)  
yo ‘nalishi I kurs magistr talabasi  
Tosheva Muhayyo*

**Annotatsiya:** Dunxuan – qadimiy Ipak yo ‘lining muhim markazlaridan biri bo ‘lib, u Sharq va G’arb o ‘rtasidagi madaniy, savdo va diniy almashinuvning strategik nuqtasida joylashgan. Shahar Xitoy sivilizatsiyasi, Markaziy Osiyo, Hindiston va Yaqin Sharq madaniyatlarining kesishgan joyida joylashgani bois, u nafaqat iqtisodiy markaz, balki bilim va san’at maskani sifatida ham mashhur bo ‘lgan. Tadqiqotda Dunxuanning jahon sivilizatsiyasidagi o ‘rni, uning Ipak yo ‘lidagi strategik ahamiyati, Mogao g ‘orlari san’ati va Dunxuan qo ‘lyozmalarining tarixiy-madaniy merosi o ‘rganiladi. Shuningdek, buddaviylik, daosizm, manixeylik va zardushtiylik kabi turli diniy ta ’limotlarning bu hududda targalishi va o ‘zaro ta ’siri tahlil qilinadi. Dunxuan Sharq va G’arb o ‘rtasidagi bilim almashinuviga katta hissa qo ‘shgan bo ‘lib, uning arxeologik yodgorliklari bugungi kunda ham olimlar e’tiborini jalg etmoqda. Ushbu tadqiqot qadimiy Dunxuan shahrining tarixiy va madaniy jihatlarini chuqurroq ochib berishga qaratilgan bo ‘lib, uning jahon sivilizatsiyasidagi o ‘rnini yoritadi.

**Kalit so‘zlar:** Xitoyda buddizm, Ipak yo ‘li, Mahayana buddizmi, Tang sulolası, Bodhisattva, Guan-yin, Dunxuan g ‘orlari, Buddist san’ati, Xitoy madaniyati, Buddist falsafasi, Amitofo, Maytreyta, Vey Moze, Buddizm ta ’siri.

### THE ARRIVAL OF BUDDHISM IN THE CITY OF DUNHUANG IN CHINA

**Annotation:** Dunhuang was one of the key centers of the ancient Silk Road, strategically positioned at the crossroads of cultural, commercial, and religious exchange between East and West. Due to its location at the intersection of Chinese civilization, Central Asia, India, and the Middle East, the city became not only an economic hub but also a center of knowledge and art. This study explores Dunhuang’s role in world civilization, its strategic significance along the Silk Road, the artistic heritage of the Mogao Caves, and the historical and cultural value of the Dunhuang manuscripts. Additionally, it examines the spread and interaction of various religious traditions, including Buddhism, Daoism, Manichaeism, and Zoroastrianism, in this region. Dunhuang made a significant contribution to the exchange of knowledge between East and West, and its archaeological sites continue to attract the attention of scholars today. This research aims to provide a deeper understanding of the historical and cultural aspects of ancient Dunhuang and highlight its place in world civilization.

**Keywords:** Buddhism in China, Silk Road, Mahayana Buddhism, Tang Dynasty, Bodhisattva, Guan-yin, Dunhuang Caves, Buddhist art, Chinese culture, Buddhist philosophy, Amitofo, Maitreya, Wei Moze, Buddhist influence.

Kirish. Dunxuan viloyati G‘arbiy Xan sulolasi imperatori Vudi davrida (miloddan avvalgi 206 - miloddan avvalgi 8 yillar) tashkil topgan. Uning tarkibiga qirq mingga yaqin aholiga ega oltita okrug kirgan.

Qianfodong g‘or monastiri 366-yilda Gansu provinsiyasidagi Dunxuan shahri yaqinida Shinjon bilan tutashgan joyda tashkil etilgan. Bu yerdan Xitoyni G‘arb bilan bog‘lovchi karvon yo‘li Buyuk Ipak yo‘li boshlangan. Monastir 50 metr balandlikdagi Minshashan va Sanveyshan tog‘lari orasidagi qoyalarga o‘yilgan ulkan g‘orlar guruhi edi.

“Qianfodong yoki Mogao 1600 metrga cho‘zilgan. Bugungi kunga qadar 492 ta g‘or saqlanib qolgan, ularda 45 ming kvadrat metr devor rasmlari va 4—14-asrlar davomida yaratilgan 2500 ta loydan bo‘yalgan haykallar mavjud. Mogao g‘orlari Xitoyda eng yaxshi saqlanib qolgan tosh majmualari hisoblanadi. Qianfodong g‘orlarining bezaklari Xitoydag‘i o‘rta asr san’ati rivojining ulkan bosqichini qamrab oladi. Afsonaga ko‘ra, birinchi bo‘lib 4-asrda rohib Le Zun bu yerda meditatsiya va buddist sutralarini o‘qish uchun g‘orni o‘yib chiqqan. Keyinchalik Shimoliy va G‘arbiy Vey sulolalari davrida (386 - 534 va 535 - 577), Shimoliy Chjou (557 - 581), Suy (581 - 618), Tang (618 - 907), Besh sulolalar davri (907-960), Song (970 - 1279) va Yuan sulolasi (1271 -1368) davrida ko‘plab g‘orlar o‘yilgan, rasmlar bilan qoplangan va haykallar bilan bezatilgan.

Asosiy qism. Qianfodong grottolarida har bir sulola davrida noyob badiiy asarlar qoldirildi. Agar Vey davri g‘orlari buddaviy ma‘budlarining haykaltaroshlik obrazlari go‘zalligi va ma‘naviy nafisligi bilan mashhur bo‘lgan bo‘lsa, Tan davri yer yuzidagi go‘zallik va hissiy jozibaga to‘la devoriy tasvir yodgorliklarini yaratdi, ular jahon san’ati xazinasiga haqiqiy durdona asarlar sifatida kirgan.

Tang sulolasi davri (618–907) — qadimgi Xitoy tarixidagi "oltin asr" bo‘lib, u oqilona boshqaruv, iqtisodiyot va siyosatning rivojlanishi, shuningdek, boshqa mamlakatlар bilan ochiq muloqot siyosatiga sodiqlik hamda taraqqiyotga intilish davri sifatida e’tirof etiladi. Ushbu davrda o‘z qudratiga bo‘lgan ishonch asosida begona madaniy ta’sirlarga nisbatan katta bag‘rikenglik namoyon etilgan. Tang sulolasining madaniy almashinuvdagi ochiqligi va faoliyati darajasi bilan boshqa biron-bir xitoydag‘i sulola tenglasha olmaydi.

Tang davri savdogarlari quruqlik va dengiz yo‘llaridan foydalanib, dunyoning 70 dan ortiq mamlakati bilan savdo olib borganlar. Imperator saroyi xorijiy savdogarlar uchun qulay sharoitlar yaratgan: ular qo‘srimcha soliqlardan ozod qilingan, Xitoyda uzoq vaqt yashash, xitoylik ayollarga uylanib, oila qurish imkoniyatiga ega bo‘lganlar. Shuningdek, til, an’ana va madaniyatni bilish bo‘yicha imtihon topshirib, ma‘muriy lavozimlarni egallah huquqiga ham ega bo‘lishgan.

Hozirgi Guanchjou va Tsüanchjou shaharlari o‘sha davrda xalqaro port shaharlar bo‘lib, milliondan ortiq aholiga ega bo‘lgan poytaxt Chan’an (hozirgi Sian shahri) savdo, siyosat va ta’lim markaziga aylangan edi. Bu yerda Fors, Arab mamlakatlari, Hindiston, Yaponiya va Sharqiy Rim imperiyasidan kelgan yoshlар tahsil olishgan.

Xitoyning qog‘oz ishlab chiqarish, chinni tayyorlash va to‘qimachilik texnologiyalari Arab mamlakatlari, Afrika va Yevropaga tarqalgan edi. Yaponlar Xitoydan ijtimoiy-madaniy jihatlarni o‘zlashtirganlar: siyosiy tizimdan tortib me’moriy inshootlarning tuzilishigacha, ayollar liboslarining uslublaridan to shashka o‘yinigacha bo‘lgan an’analarni qabul qilganlar.

Tang imperiyasi dunyoda katta siyosiy mavqega ega bo‘lgan, shu davrda xitoyliklarni hatto "tanglar" deb atashgan. Bu nom ba’zi mamlakatlarning lug‘atlarida hanuzgacha saqlanib qolgan.

Xorijiy madaniy ta’sirlarga ochiqlik va Tang hukmdorlarining o‘z qudratiga bo‘lgan ishonchi ularning chet el dinlariga bo‘lgan munosabatida ham aks etgan. Din erkinligi kafolatlangan, mahalliy dinlar bilan bir qatorda tashqaridan kelgan dinlar ham teng huquqlarga ega bo‘lgan. Buddizm ta’limoti va san’ati bu davrda o‘zining eng yuksak cho‘qqisiga yetgan. Bundan tashqari, Xitoyda islom dini va O‘rta yer dengizi hududlaridan kelgan xristianlik ham ma’lum darajada tarqalgan.

Tang davrida ilm-fan, madaniyat va ma’rifat sohalarida katta taraqqiyotga erishilgan. Ushbu davrni shuningdek, she’riyat va xattotlikning "oltin asri" deb atash mumkin.

Mogao g‘or-ma’bad majmuasining qurilishi va rivojlanishi Tang hukmdorlarining keng xalqaro madaniy aloqalarni qo‘llab-quvvatlaganligini tasdiqlaydi. Bu majmua o‘zining betakror devoriy rasmlari va haykallari bilan madaniy almashuvning yorqin ramzi bo‘lib xizmat qilgan.

Tang davri, Xitoy rivojlangan o‘rta asrlar davriga qadam qo‘yan bir paytda, mamlakat san’ati va madaniyatida yorqin iz qoldirdi. Madaniyatning gullab-yashnashi shaharlarning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq edi, chunki aynan shaharlar savdo, hunarmandchilik va ishlab chiqarish markazlariga aylangan edi.

Shaharlarda kutubxonalar va o‘quv yurtlari ochilgan joylar bo‘lib, bilim va ijod uchun zamin yaratilgan. Uch asr davomida me’morchilik, haykaltaroshlik va she’riyat kabi turli ijodiy sohalar o‘zining yuksak rivojlanish davrini boshdan kechirdi. Bu davr Tang madaniyatining boyligi va xilma-xilligini aks ettiradi.

Tang sulolası davrida Xitoy madaniyatining gullab-yashnashi ko‘plab ijodiy faoliyat turlari to‘plangan shaharlarning rivojlanishi bilan bog‘liq edi. Xitoy ibodatxonalarida mashhur rassomlar tomonidan yaratilgan devoriy suratlar mamlakatning badiiy hayotining yuqori darajasini bizgacha yetkazib berdi.

X asrda imperator saroyida Rassomlik akademiyasi mavjud bo‘lgan. Davlat mansabdorlaridan she’r yozish va san’at asarlarini haqiqiyligini ajrata olish qobiliyati bo‘lishi majburiy hisoblangan.

Bu davrda qudratining cho‘qqisiga yetgan Xitoy boshqa mamlakatlar, avvalo Yaponiyaning, Markaziy va O‘rta Osiyo davlatlarining hamda Koreyaning madaniyatiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Buddaviylik dini Xitoya kirib kelishidan avval devoriy suratlar allaqachon ma’lum va keng tarqalgan edi. Xususan, Xan sulolası, shuningdek, Dunxuanga va Tsyusyutsyuan hududida joylashgan Vey va sin sulolalarining qabristonlaridagi devoriy suratlarning namunalari saqlanib qolgan. Ushbu monumental rasm asarlarining asosiy syujetlari daos va konfutsiylik afsonalaridan olingan.

Budda dini devoriy suratlari eramizdan avvalgi II asr va yangi davr boshlariga taalluqli bo‘lib, ushbu san’at turi Hindistondan Markaziy va G‘arbiy Osiyo mamlakatlariga tarqalgan. Eramizning II asrida Buyuk Ipak yo‘li orqali Sinzyan hududiga kirib kelgan, IV asrda esa shimoliy yo‘nalish (Tyutsi va Kuch orqali) va janubiy yo‘nalish (Xotan va Loulan orqali)

orqali Dunxuanga yetib kelgan. Nihoyat, Hesi yo‘lagi orqali Xitoyning markaziy qismiga tarqalgan.

Budda dinining rivojlanishidagi eng yuqori cho‘qqi Suy va Tan sulolalari davriga to‘g‘ri keladi. Hukumat bu davrda nafaqat diniy e’tiqod erkinligini kafolatlagan, balki rohiblarning buddizmni o‘rganish uchun Hindistonga safar qilishlarini ham qo‘llab-quvvatlagan.

Tan davrining mashhur rohibi Syuan Szan uzoq va mashaqqatli yo‘lga qaramay, Hindistonga ziyoratga borib, u yerda o‘n yil davomida buddizm asoslarini chuqur o‘rgangan va yuqori darajada bilim va ma’naviyatga erishgan. U Xitoya sanskrit tilidagi taxminan 650 ta buddaviy kitobni olib kelib, ko‘p yillar davomida ularni xitoy tiliga tarjima qilishga bag‘ishlagan. Bu nafaqat Xitoya buddizmning keng tarqalishiga, balki G‘arbiy Osiyo madaniyatlari bilan o‘zaro aloqalarning mustahkamlanishiga ham xizmat qilgan.

Budda dinini Xitoya yanada kengroq va chuqurroq yoyish maqsadida voizlar o‘z targ‘ibotlariga konfutsiylik elementlarini kiritib, monastir hayoti va dunyoviy hayotga qaytish holatlarini Xitoyning ijtimoiy realliklari bilan bog‘lashga harakat qilganlar. Ular buddaviy qoidalarning hukumat qonunlari bilan, buddaviy nizomlarning Xitoyning an‘anaviy axloqiy me’yorlari va qarashlari bilan uyg‘unlashuvini ta’minlashga intilganlar. Natijada, Xitoy madaniyati va an‘analariga moslashtirilgan buddaviy yo‘nalishlar va maktablar paydo bo‘ldi. Masalan, Syuan Szan tomonidan asos solingan Fasyan-tszun yo‘nalishi, shuningdek, Tyan’tay-tszun va boshqa maktablar. Tan sulolasi hukmronligining boshida esa Chan-tszun maktabi tashkil etilgan bo‘lib, tez orada u buddaviy yo‘nalishlar ichida yetakchi mavqega ega bo‘ldi.

Tan sulolasi arxitekturasida ulug‘vorlik, go‘zallik va boylik g‘oyalari yaqqol namoyon bo‘lgan. Bu g‘oyalari, xususan, Changan (hozirgi Sian shahri) shahrida joylashgan Damingun saroyi ansamblida o‘z aksini topgan. 628–645-yillarda qurilgan, afsuski, hozirgacha saqlanib qolmagan Hanyuan’dyan shahri va saroyi ham bu davr arxitekturasining yorqin namunasidir.

Umuman olganda, Tang davri me’moriy yodgorliklari bizgacha faqat kichik fragmentlar shaklida yetib kelgan. Masalan, Shansi provinsiyasida joylashgan ansamblidan faqat bitta ibodatxona saqlanib qolgan. Ushbu ibodatxona Tang arxitekturasining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi: mustahkamlik, hashamat va ulug‘vorlik. Budda rohiblari tomonidan qurilgan, Sian shahridagi Dayanta pagodasi esa kvadrat shaklidagi kesimiga ega bo‘lib, o‘sha davrdagi Xitoy san‘atiga Hindiston ta’sirini yaqqol ko‘rsatadi.

Hindistondan kirib kelgan buddizmning rivojlanishi Xitoya nafaqat buddaviylik, balki daos ibodatxonalarini va yirik maydonlarni egallagan g‘or majmularining qurilishiga ham turtki bo‘ldi.

Qabrlar, ma’muriy va turar joy binolari, ibodatxonalar va g‘orlardagi devoriy suratlarning suyjetlari diniy hamda dunyoviy motivlarga asoslangan. Ular diniy rivoyatlar bo‘laklari, tabiat go‘zalligini aks ettiruvchi manzaralar, qushlar, gullar tasvirlarini o‘z ichiga oladi. Bu esa o‘rtas odamining atrof-muhit haqidagi qarashlarining murakkab kompleksini ifoda etadi.

Tang davri devoriy suratlari eng yaxshilari Mogao g‘orlarida saqlanib qolgan. Tang davri olimi Chjan Yanyuanning yozishicha, o‘sha davrda ma’lum bo‘lgan 200 nafar tanglik rassomdan qariyb 180 nafari devoriy suratlar bilan shug‘ullangan, ularning orasida mashhur rassom U Daotszi ham bo‘lgan. U taxminan 300 devorni rasmlar bilan bezagan.

Dunxuan — Gansu provinsiyasining eng g‘arbiy shahri bo‘lib, mashhur Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgan. Bu esa shaharni savdo va hunarmandchilik markaziga aylantirgan. To‘lqin paytida shiddat bilan oqadigan daryo ko‘p miqdorda qum olib kelar edi, bu esa sahro hosil bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Dunxuan Xitoyning markazi bilan ham, Sinzyan provinsiyasi bilan ham bog‘langan edi. Sharq va G‘arbni mustahkam bog‘laydigan aloqalar tufayli Dunxuanni yilnomalarda "xitoyliklar va chet elliklarni birlashtiruvchi shahar" deb atashgan. Shaharda ipak, chinni, marvarid va boshqa qimmatbaho toshlar, tuyalar, otlar va vino xalqaro savdoning asosini tashkil qilgan.

Asosiy omillar bo‘lgan qulay geografik joylashuv, rivojlangan savdo va hunarmandchilik — iqtisodiyot va madaniyatning taraqqiyotiga sharoit yaratdi. “Aynan shu yerda hind va xitoy madaniyatlarining o‘zaro aralashuvi sodir bo‘ldi” degan fikrni xitoylik olim Ji Sianglin aytgan. U shuningdek, ushbu yodgorlikning jahon san'atidagi ahamiyatini ham ta‘kidlagan.

Dunxuan bu —bir nechta g’orlarning umumiyy nomi: Mogao yoki Tsyan’fodun (Minglab Buddalar g’orlari), Sitszyan’fodun (Dunxuan shahrida joylashgan Tsyan’fodunning G‘arbiy g’orlari), Dungzyan’fodun (Yuylin yaqinidagi Tsyan’fodunning Sharqiy g’orlari), shuningdek, Ansi tumanidagi Ugemyao g’ori va Subay tumanidagi Besh ma’badlar g’orlari kabi bir nechta g’orlarning umumiyy nomidir va u bu g’orlarni devor rasmlari uslubi, syujeti va joylashuvi bilan birlashtirilgan.

Ularning eng muhim bo‘lgan Mogao majmuasi Dunxuan shahridan 25 kilometr janubi-sharqda, Minshashan tog‘ining sharqiy qismida, Dan manbasiga yaqin joylashgan. Bu yerda ming yillar davomida (IV-XIV asrlar) janubdan shimolgacha 1680 metrga cho‘zilgan arxitektura bezaklari, g’or rasmlari va haykallarni o‘z ichiga olgan majmua yaratilgan. 735 ta g’or saqlanib qolgan bo‘lib, ular 15 dan 50 metrgacha balandlikda bittadan to’rttagacha qavatlarda joylashgan. Janubiy qismida Buddaga ibodat qilish uchun mo’ljallangan 492 ta g’or mavjud bo‘lib, ular 2000 dan ortiq rangli haykallarni saqlaydi. Devordagi rasm yuzasi 45,000 kvadrat metrni tashkil etadi, shuningdek, beshta yog‘och arxitektura tuzilmasi ham saqlanib qolgan.

Shimoliy hududda 243 ta g’or joylashgan bo‘lib, bu yerda ehtimol rohiblar yashagan, chunki u yerda na rasm, na haykallar bor, lekin uy jihozlari, mebel namunalariga (g‘ishtdan yasalgan yotoq) va tutun quvurlari saqlanib qolgan.

Majmuaning asosiy qismida markaziy o‘rinni egallagan haykal g’ornrasmlari bilan uzbek bog‘liq bo‘lib, bu bog‘lanish nafaqat ranglar bilan emas, balki syujet nuqtai nazaridan ham seziladi. Dunxuan g’orlaridagi devor rasmlari va haykaltaroshlik san’ati xalq san’atining an'anaviy elementlarini buddaviy dini bilan uyg‘unlashtirgan bo‘lib, bu ularni jahon madaniyatining qimmatli merosiga aylantiradi.

Dunxuan shahrining tarixining umumiyy davomiyligi ikki ming yilni tashkil etadi. Qin (miloddan avvalgi 221–206 yillar) va Han (miloddan avvalgi 206 – milodiy 220 yillar) davridan oldin, hozirgi Dunxuan hududida qadimgi xitoy xalqlari sun va yuechji kabi kichik qabilalar yashagan. G‘arbiy Han sulolasi (miloddan avvalgi 206 – milodiy 8 yillar) hukmronlik qilishning boshida, xunnlar mahalliy aholini siqib chiqarishgan, ammo miloddan avvalgi 111 yilda ular mag‘lub bo‘lishgan. Ushbu chekka hududlar qo‘lma-qo‘l o‘tib axiyri aniq tuzilgan

davlat tuzilmasi (Xesi) tashkil topgan, bu davlat Buyuk Xitoy devorini qurishga qatnashgan, shu bilan birga g‘arbda Yanguan va Yümenguang o‘tkazgichlari tashkil topgan.

Shahar geografik joylashuvining strategik ahamiyati uning iqtisodiy taraqqiyotini belgilab berdi va aholining muhim guruhlari oqimi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos badiiy tamoyillar hamda hunarmandchilik ko‘nikmalarini olib kelgan holda madaniy rivojlanishni rag‘batlantirdi.

Dunxuan shahrida buddizm va mahalliy aholi tomonidan qabul qilingan konfutsiylik uzoq vaqt davomida muvaffaqiyatli tarzda birga yashab keldi.

Shonli Sharqiy davlatlarning tarixiy davri - O‘n olti qirollik davrida (304–439) Xitoy hududida ko‘plab urushlar yuz bergan bo‘lsa-da, bu voqealar deyarli Dunxuan shahriga ta’sir qilmagan. Bu holat shaharning uzlucksiz rivojlanishiga, shuningdek, unda madaniy va ma’naviy bilimlarning tarqalishiga imkon yaratgan.

Bu davrda konfutsiylik madaniyat, hayot va mafkuraning muhim qismiga aylangan. Bunga olimlarning faoliyati, ushbu ta’limotni xalq orasida keng yoyilishi va konfutsiylik maktablarining ochilishi sabab bo‘lgan.

Shu bilan birga, Hindiston orqali Xitoya buddizm kirib kelishi jarayoni davom etgan. Aynan shu davr buddizmning tarqalishi bilan bog‘liq bo‘lib, Mogao g‘or majmuasining qurilishi ham shu voqealar natijasidir.

Afsonaga ko‘ra, Mogao g‘or majmuasining yaratilishidan oldin mo‘jizaviy voqeа sodir bo‘lgan. Bu voqeа Tang davri olimi Li Kejan tomonidan yozilgan asarlarda tasvirlangan. Afsonaga ko‘ra, bir rohib tog‘larda minglab Buddalarning oltin nuri va yorqinligini ko‘rgan. Aynan shu joyda keyinchalik Buddani ulug‘laydigan haykallar va freskalar yaratilgan.

Shimoliy Chjou sulolasasi (557–581) va Shimoliy Vey davrining imperatori Yuan Taychjun (386–534) buddizmga e’tiqod qilgan va aynan shu yo‘nalishdagi san’atni rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. Shu sababli, Mogao g‘orlarining 96-chi g‘orida ulkan Buddha haykali (balandligi 35,5 metr) aynan shu davrda qurilgan.

Suy davri - Shimoliy va Janubiy Xitoyning birlashuvi hamda mamlakatning shimoli-g‘arbiy qismini egallab turgan kam sonli turk qabilasining g‘alabasi bilan ajralib turadi. Buyuk ipak yo‘li orqali savdo karvonlarining oqimi natijasida savdo jonlandi.

Suy sulolasining imperatorlari Vendi va Yandi, buddizmga e’tiqod qilgan holda, mamlakatning har bir viloyatida Buddha haykallarini o‘rnatishni qonunlashtirdilar. Mogao g‘orlarida mavjud bo‘lgan inshootlarda yangi stupalar qurilib, devorlari saroy yozuvchilari tomonidan yaratilgan sutra syujetlari asosidagi freskalar bilan bezatildi. Suy sulolasining qisqa hukmronligi bir nechta yangi g‘orlar qurilishi va yangi haykallarning yaratilishi bilan ham ajralib turadi.

Xulosa. Tang sulolasasi davrida Buyuk ipak yo‘lining iqtisodiy va madaniy ahamiyati anglab yetildi va bu Xitoy, Hindiston, O‘rta va G‘arbiy Osiyo madaniyatlarining faol o‘zaro ta’sirini ta’minlash uchun urushlarning tugatilishiga turtki bo‘ldi.

Biroq, 755-yilda (Tyanbao hukmronlik davrida) hokimiyat uchun kurash sabab yuzaga kelgan isyon mamlakatni zaiflashtirdi. Siyosiy jihatdan kichik Turfon qabilasi muvaffaqiyat cho‘qqisiga chiqdi va mamlakatning siyosati, iqtisodiyoti hamda turmush tarzida sezilarli o‘zgarishlar kiritdi. Shunga qaramay, Mogao g‘orlarida qurilish ishlari to‘xtamadi.

842-yilda imператор Xuychang Turfon bosqinchilarining ichki nizolardan foydalangan holda mamlakatni ozod qilish uchun zamin tayyorladi. 848-yilda Chjan Ichao mamlakatni ozod etishni muvaffaqiyatlari yakunladi. Yangi sulola taxminan ikki asr davomida hukmronlik qildi, bu esa nisbatan tinchlik davri bo‘ldi. Bu davrda Tang davri boshqaruv tamoyillariga qaytilib, yerusti va g‘or ibodatxonalar qurildi hamda kichik xalqlar bilan tinch-totuv yashash siyosati olib borildi.

Shu yondashuv keyingi Song sulolasi (960–1179) davrida ham davom etdi. Ammo dengiz Ipak yo‘lining rivojlanishi Dunxuan iqtisodiyotining tanazzuliga olib keldi. Shahar o‘zining qadimgi quruqlikdagi savdo tizimida Sharq va G‘arb o‘rtasida muhim bo‘g‘in sifatidagi geografik ahamiyatini yo‘qota boshladi.

20-asr boshlariga qadar bu hudud qarovsiz holatda qoldi. Biroq, “Sutralar xazinasi” g‘orida topilgan kutubxona arxeologlar va tadqiqotchilarni hayratga soldi. U yerda astronomiya, tibbiyat, matematika va buddizmga oid turli mavzularni qamrab olgan, xitoy, hind va boshqa tillarda yozilgan ko‘plab asarlar bor edi.

Milliy boylikka bo‘lgan beparvo munosabat tufayli bu nodir asarlar boshqa mamlakatlarga tarqalib ketdi va faqat kichik bir qismigina o‘z yurtida qoldi. Bu holat, shubhasiz, Xitoy madaniyatiga katta zarar yetkazdi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Duan Vensze. Dunxuan san’ati ocherklari // Lanchjou, 1994.
2. Ouyan Lin, Shi Vey-syan. Dunxuan bezagi // Shanxay, 1995.
3. Chen Chuansi. Xitoy san’atida "tug‘-suv" janri // Nankin, 1988.
4. Yunlyanda. Xitoy tasviriy san’atidan ma’ruzalar. 50-ma’ruza // Xanchjou, 1995.
5. Chjay Szunchju. Din. San’at. Tarix. // Hofei, 1987.
6. Chjan Yan Yuan. Tan davri san’ati durdonalari.
7. Kun Sinmyao, Chjan Pin. Xitoy va Yevropa tasviriy san’atining qiyosiy tahlili // Jingnan, 2002.
8. Chen Chjidun. Istorya kitayskogo iskusstva dinastiy Suy i Tan // Trudi akademii xudojestv Dunxuana. 1999.
9. Fan Szinshi. Dunxuan san’ati // Nankin, 2000-yil.
10. In Shennin. Tan davri qabrлari devoriy yozuvи // Sian, 1991.
11. Chjou Szyumo. "Lo Yan Ji Lan shahriga sayohat"ga sharhlar // Pekin, 1963-yil.
12. Tan Syuy Szan Byan Szi. DaTansiyuga sayohat.
13. Szi Syanlin. Da Tan Siyuga sayohat izohlari // Pekin, 1985-yil.
14. Xe Shichje. Bey Chjao sulolasining Dunxuan shahridagi Mogao g‘ori va tafakkur g‘oyalari // Lanchjou. 1982.